

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI

**“MILLIY G'OYA, MA`NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI”
yonalishi 3-kurs talabalari uchun**

FALSAFA TARIXI VA NAZARIYASI

fanidan

O`QUV-USLUBIY MAJMUA



NAVOIY – 2011

Falsafa tarixi va nazariyasi fanidan ma`ruzalar matni institutning bakalavr va magistrLARining bilimini baholashda yordam beradi. U institut, kollej, litsey talabalari va barcha shu sohani o`rganuvchilar uchun mo`ljallangan.

Tuzuvchilar:

Raxmonov Ravshan – O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan xalq ta`limi xodimi, falsafa fanlari doktori, professor

Safarova Nigora Olimovna – “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Raupov – Navoiy davlat konchilik instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Hayitov Z. – Navoiy davlat pedagogika instituti “Umumiy tarix” kafedrasi katta o`qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi

Mazkur majmua NDPI Ilmiy kengashining 2011 yil _____

_____ - bayonnoma) yig`ilishida tasdiqlanib, chop etishga tavsiya etilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

№-----

2009 yil «-----»-----

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim
Vazirligining 2009 yil «----»
----- dagi «-----» sonli
Buyrug'i bilan tasdiqlangan

FALSAFA
fanidan
namunaviy dastur

Bilim sohasi: 100000---Ta'lim

Ta'lim sohasi: 140000—O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika ilmi

Ta'lim yo'nalishi: 5141500—Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

TOSHKENT-2009

Fanning o'quv dasturi oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2008 «20» avgustdagi «4» -sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

SHermuxamedova Niginaxon Arslonovna – O'zbekiston Milliy universiteti “Falsafa va fan metodologiyasi” kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Ayupov A.T. - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti “Falsafa va fan metodologiyasi” kafedrası professori, falsafa fanlar nomzodi.

Usmonov M. – Toshkent islom universiteti “Falsafa” kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Fanning o'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-metodik kengashida tavsiya qilingan. (2009 yil «___» _____dagi ___ sonli majlis bayonnomasi)

KIRISH

Mustaqillikning taraqqiyot yo'li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zero, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki, I.A. Karimov aytganlaridek, "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega"¹.

Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o'zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan.

Darhaqiqat, dunyo ta'lim maydonining globallashuvi sharoitida falsafaning roli va ahamiyatini chuqur anglash zarur. SHu bois talabalarga falsafaning paydo bo'lishi, mohiyati, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati, insonning hayotdagi o'rni, shuningdek globallashuv jarayonida umumiy va xususiy manfaatlar uyg'unligi haqida bilim berish muhim ahamiyatga ega. Zero falsafa insonda dunyoqarashning shakllanishida alohida rol o'ynaydi. Falsafaning asosiy funksiyasi-insonning tabiat va jamiyatga moslashuvidir. Har bir inson hayotining ma'lum bosqichida o'z maqsadini aniqlaydi, o'z erkinligini namoyon qiladi. Falsafa insonga maqsadini tanlashga yordam beradi. U hodisalar mohiyatini o'rganish, baholash imkoniyatini beradi. O'zining menini anglashda dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Dasturning birinchi bo'limi falsafiy bilimlar evolyutsiyasining g'oyalar xilma-xilligiga ta'siri, ular asosida bilish jarayonining takomillashuvi, borliqning bilim ob'ekti ekanligi, insonning o'z-o'zini va jamiyatning umummafkurasini anglashida tushunish va tushuntirishning roli, axborot manbai bo'lmish olamga hozirgi davr nuqtai-nazaridan yondashuvlarning ahamiyati, globallashgan dunyoda global muammolarni hal qilishda tarix falsafasini o'rganishning ahamiyatiga bag'ishlangan.

Dasturning ikkinchi bo'limi bevosita mantiqiy tafakkur shakllari va qonunlari, ularning fikrni to'g'ri qurish va haqiqatga erishishning me'yoriy qoidalarini yoritishni nazarda tutib, ular bilan tanishish, talabalarda erkin mustaqil fikr yuritish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, chin fikrni xato fikrdan ajratishni o'rganishga yo'naltirilgan.

Dasturning uchinchi va to'rtinchi bo'limlari axloq va nafosat falsafasi masalalarining muhokamasiga tegishli bo'lib, insonning ma'naviy kamolotga erishisha axloqiy normalarning o'rni, axloq va nafosat falsafasi mezoniy tushunchalarining mazmunini anglash kabi masalalar bilan tanishtirishga qaratilgan.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. –Б.113.

Dasturda ilk marotaba falsafiy fanlar muvofiqlashtirilib, unda azaliy falsafiy muammolarga yangicha falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashilgan, nazariya va amaliyot uyg'unligiga e'tibor qaratilgan.

Fanning maqsadi – talabalarda o'z—o'zini anglash, to'g'ri fikrlash, o'z-o'zini tabiiyalash tushunish mahoratini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari- falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalarni o'rganish orqali hayotda o'z o'rnini topishga,

-o'zining eng oliy maqsadini topish va unga erishish yulida maqsadli faoliyat olib borish,

-jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondoshish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish,

-bilim va malakalarini jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida to'liq namoyon qilish mas'uliyatini his qilishga o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha bilim malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar.

Bakalavr:

1.dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

2.falsafa tarixini bilishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon etishi hamda ilmiy asoslay olishi, milliy falsafani anglagan holda Vatan tuyg'usi shakllangan bo'lishi;

3.tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

4.insonning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va ahloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatda joriy qilishi;

5.axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

6.bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

7.yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

8.dunyoning global muammolaridan xabardor bo'lishi, fundamental globallashuvni, globallashuvning boshqa jihatlaridan farqlay olishi, xususiy, milliy, mintaqaviy muammolarni o'rganishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olishi,

9.sog'lom turmush tarzi haqida ilmiy tasavvurga va e'tiqodga ega bo'lishi, o'zini jismonan takomillashtirish malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi:

Falsafa o'quv rejadagi inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatini o'rganuvchi ijtimoiy gumanitar fanlar - tarix, psixologiya sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar, shuningdek, tabiiy jarayonlar dialektikasini o'rganuvchi fizika, matematika, biologiya, astranomiya, kimyo kabi tabiiy ilmiy fanlar bilan aloqador. Umuman

falsafa tabiiy va ijtimoiy fan bilimlarini o'zida mujassamlashtiruvchi olam va odam haqidagi eng umumiy bilimlar majmui.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi:

falsafa fanini o'qitish jarayonida ilmiylik tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillarga amal qilingani holda an'naviy usullar, davra suhbat, klaster, bahs-munozara, aqliy hujum, prezentatsiya kabi zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

ASOSIY QISM

I BO'LIM. FALSAFA

Falsafaning predmeti, mazmun va mohiyati, jamiyatdagi roli

Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Dunyoqarashning mohiyati. Dunyoqarashning intellektual, emotsional va ruhiy asoslari. Dunyoqarashning tuzilishi: dunyoni sezish, dunyoni idrok etish, dunyoni tushunish. Dunyoqarashda shaxsning roli.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Mif dastlabki dunyoqarash sifatida. Diniy dunyoqarash. Dinning asosiy funksiyalari. Dinning psixologik, gnoseologik va siyosiy ildizlari. Dinga nisbatan sotsiologik yondoshuv. Diniy e'tiqodning tarixiy shakllari (feteshizm, animizm, totemizm, magiya).

Falsafa dunyoqarash shakli sifatida. Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati. Falsafaning predmeti va uning o'zgaruvchan xarakteri. Falsafiy bilimning tuzilishi. Falsafaning yangi sohalari. Falsafaning asosiy masalalari. Falsafani siyosiy lashtirishning oqibatlari. Falsafada shubhaning roli. Falsafaning funksiyalari. Falsafaning jamiyatdagi roli yoki amaliy falsafa. Falsafaning ijodiy roli.

Fan dunyoqarash shakli sifatida. Falsafa va fanning mutanosibligi, farqi. Ssiyentizm va antissiyentizm. FTT rivojlanishining asosiy bosqichlari. Hozirgi davrda falsafaga munosabat.

Falsafiy tafakkur evolyutsiyasi. Qadimgi davr, o'rta asrlarda uyg'onish davri falsafasi

Falsafa tarixini davrlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Falsafiy tafakkur shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va ma'naviy asoslari.

Qadimgi Yaqin va o'rta SHarqda diniy falsafiy fikrlar. Qadimgi Bobil va Misrda tabiiy-ilmiy va falsafiy bilimlarning vujudga kelishi. Qadimgi Markaziy Osiyoda zardo'shtiylik. Uning ijtimoiy-siyosiy asoslari. Qadimgi Hindiston falsafasining asosiy masalalari va oqimlari.

Qadimgi Xitoy falsafasining paydo bo'lishi, bahs mavzulari va rivojlanishi.

Qadimgi YUnoniston va Rimda falsafaning shakllanishi. Antik falsafaning kosmotsentrik xarakteri. SHarq va G'arb renessansi tushunchalari, ularning o'xshashligi va tafovuti.

O'rta asrlar falsafasining teotsentristik mohiyati. Islom falsafasining shakllanishi. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda falsafiy fikr taraqqiyoti, uning asosiy yo'nalishlari: ratsionalistik oqim va so'fiylik. 9-12 asr falsafasi va madaniyatining ilk SHarq renessansi sifatida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni.

Amir Temur va temuriylar davri fani va falsafasining asosiy xususiyatlari. 15-16 asrlar Markaziy Osiyo falsafasi gumanizmi.

O'rta asrlar G'arb falsafasida universalistlar masalasining muhokama etilishi: nominalizm va realizm. Uyg'onish davri yevropa falsafasining antropotsentristik mohiyati: uning teologiya va sxolastikadan gumanizm va fanga qarab rivojlanib borishi. Uyg'onish davri falsafasining yo'nalishlari.

YAngi va eng yangi davrlar falsafasi

Klassik falsafaning shakllanishi, uning asosiy xususiyatlari. YAngi davr falsafasining asosiy muammolari. Ilmiy bilish metodologiyasi masalalarining tadqiq etilishi.

G'arbiy yevropa ma'rifatparvarlik falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishi.

Turkistonda ma'rifatparvarlik va jadidchilik g'oyalarining shakllanishi, uning falsafiy g'oyaviy asoslari hamda milliy o'zlikni anglashda tutgan tarixiy o'rni.

18-19 asrlarda nemis falsafasi.

Noklassik falsafaning shakllanishi, uning xususiyatlari va taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari: fenomenologiya. Ekzistensializm, pozitivizm, germenevtika va boshqalar. Zamonaviy G'arb falsafasining taraqqiyot tendensiyalari. Postmodernizm konsepsiyalari.

Ontologiya - borliq falsafasi

Borliq falsafaning predmeti. Ontologiya tushunchasi. Borliq kategoriyasi. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq masalasida falsafa va fan sintezi. Borliq tushunchasining etimologiyasi. Borliq va yuqlik dialektikasi. Borliq shakllari. Olamning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi. yer tarixi. Insonning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi. Birlamchi va ikkilamchi tabiatning o'zaro mushtarakligi. Tirik tabiat yoki hayotning paydo bo'lishi. Hayotning paydo bo'lishi haqidagi falsafiy optimizm. Jonli narsalarning jonsiz narsalarga bog'liqligi. Jonli narsalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Falsafada substansiya va materiya muammosi

Substansiya muammosi. Substansiya va substrat tushunchasi. Falsafa tarixida substansiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondoshuvlar. Materialistik va idealistik monizm. Substansiyaning nazariy xususiyatlari: - O'z-o'zini belgilash (o'z-o'zining sababchisi hisoblanadi, uni yaratib va yo'q qilib bo'lmaydi);

- universallik (hech narsaga bog'liq bo'lmagan, barqaror, o'zgarmas va mutlaq birinchi negizni ifodalaydi);- kauzallik (barcha hodisalarning umumiy sababiy bog'liqligini o'z ichiga oladi);- yagonalik (birinchi negizning yagonaligini nazarda tutadi);- yaxlitlik (mohiyat va mavjudlikning birligini ko'rsatadi).

Materiya shakllarining turli tumanligi. Materiyaning tashkil topish darajalari. Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Atributlarning umumiy mazmuni. Noorganik, organik va ijtimoiy tizimlar. Dunyoning yaxlitligi va rang barangligi. Dunyo birligining fundamental asoslari. Dunyoning birligi haqidagi fan dalillari. Relyativistik kosmologiya. Olamning birinchi relyativistik modeli. Kengayuvchi olam gipotezasi. Harakatdagi olam gipotezasi. Dunyoning chekliligi va cheksizligi. Ekstensiv va intensiv cheksizlik. Cheklilik va cheksizlikning ziddiyati.

Harakat va rivojlanish

Harakat tushunchasi. Falsafa tarixida harakatning talqini. O'zgarishlarning umumiy xususiyati. Harakat va harakatsizlikning o'zaro nisbati. Harakat tiplari. Harakat shakllari. Materiya harakatining geologik shakli. Harakatning kompleks shakli. Harakatning texnik, kibernetik, informatsion shakllari. Harakatning abadiyligi. Harakat mutlaqligi va sokinlikning nisbiyligi. Ob'ektlarning barqarorligi va beqarorligi dialektikasi. Narsaning sifatini saqlash bilan bog'lik harakat, narsa sifatini o'zgartiruvchi harakat.

Makon va vaqt

Makon va vaqt borliqning fundamental shakllari. Falsafa tarixida makon va vaqt talqini. Makon va vaqtga substansional va relyatsion yondoshuvlar. Makon va zamonning dinamik va statik konsepsiyalari.

Nisbiylik nazariyasi. Makonning ko'p o'lchovligi. Ijtimoiy makon. Ijtimoiy vaqt. Makon va vaqtning harakatdagi materiyaga bog'liqligi. Makon va vaqtning umumiy xossalari: ob'ektivlik, abadiylik, cheksizlik va ichki ziddiyatlilik. Makon – vaqt kontinuumining to'rt o'lchovlilik. Makon va vaqtning metrik va tipologik xossalari. Makon va vaqtning izotropiligi va bir xilliligi.

Tabiat falsafasi

Tabiat tushunchasi. Tabiat tushunchasining keng va tor ma'nosi. Falsafa tarixida tabiatga munosabat. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi. XX asr voqeligi: Ekologik tanglik. Geografik muhit tushunchasi. Geografik muhit parametrlari. Ijtimoiy rivojlanish va geografik muhit. Geografik maktablar. Tabiiy qonunlar konsepsiyasi. Geografik determinizm. Ijtimoiy determinizm. Geosiyosat. Ijtimoiy ekologiya. Ekologik falokatlar tarixi. Ekologiyaning kelib chiqishi. Ijtimoiy ekologiya muammolari. Ekologik muammoning falsafiy ma'nosi. Biosfera. Noosfera – insoniyat geologik kuch sifatida. YAngi borliqning shakllanishi. Inson va noosfera. Koevolyutsiya.

Inson borlig'i

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari. Falsafa tarixida inson borlig'iga munosabat. Inson haqidagi falsafa. Individuallik borlig'i. Ongning tabiati. Ong va jonning tenglashtirilishi. Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Ongsizlik. Individual ong borlig'i. Ijtimoiy ong borlig'i. Irratsionalizm ong haqida. Ong bosh miya funksiyasi sifatida. Ong falsafiy muammo sifatida. Ongning materialistik konsepsiyasi. Til va ong. O'zlikni anglash.

O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyutsiyasi. Dialektika rivojlanish asosi. Dialektikaning asosiy tushunchalari: Narsa tushunchasi. Aloqa. Aloqa uchun asos. Dialektikaning muqobillari. Rivojlanish va o'zgarish tushunchasi.

Taraqqiyot tushunchasi. Taraqqiyotning turlari. Asosiy falsafiy qonunlar. Qarama-qarshilik va ziddiyat. Qarama-qarshiliklarning tasnifi. Ziddiyatlarning tasnifi. Ayniyat va tafovut. Ziddiyatlarning turlari. Miqdor o'zgarishlari va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Sifat, miqdor, me'yor, xossa, sakrash, sakrashning turlari. Inkorni-inkor. Inkorni inkorda vorisiylik.

Falsafa kategoriyalari

Falsafa tarixida kategoriyalarga turli yondashuvlar. Yakkalik, xususiylik, umumiylik. Kategoriya tushunchasi. Fan kategoriyalari, xususiylm kategoriyalar, falsafa kategoriyalari: butun, qism, sistema, element, struktura. Sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari. Sistemalarning tiplari. Mexanik yaxlitlik, noorganik yaxlitlik, orrganik yaxlitlik. Mohiyat va hodisa, mohiyat va mavjudlik, mazmun va shakl, zaruriyat va tasodif. Zaruriyat va tasodif dialektikasi. Sabab va oqibat. Sabab va oqibat dialektikasi. Bahona va shart. Sinergetika sababiyat haqida. Determinizm va indeterminizm. Imkoniyat va voqelik. Imkoniyatning turlari. Abstrakt va muayyan imkoniyat.

Gnoseologiya- bilish falsafasi

Bilish nazariyasining predmeti. Ratsionalizm. Empirizm. Persepsiya va apersepsiya. Gnoseologiyaning mazmuni va mohiyati. Optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm. Gnoseologik relyativizm. Bilimning asosiy turlari. Bilimning asosiy shakllari: kundalik amaliy bilim, o'yin vositasidagi bilim, mifologik bilim, badiiy bilim, diniy bilim, falsafiy bilim, ilmiy bilim, shaxsiy bilim ijtimoiy bilim. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Bilish faoliyat turi sifatida. Bilishdagi qarama-qarshiliklar.

Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari

Hissiy darajadagi bilimning shakllari: sezgi va idrok. Xotira, xayol va tasavvur. Empirik bilim va uning shakllari: kuzatish, eksperiment, ilmiy dalillar. Fikrning hissiylikdan ratsionallikka harakati.

Nazariy bilim va uning shakllari: ilmiy muammo, muammo va masala. Muammoli vaziyatning bilish jarayonidagi roli, gipoteza, tamoyillar, kategoriyalar, paradigmalar.

Tafakkur va uning mohiyati. Tafakkur va borliqning birligi. Tafakkurning asosiy shakllari: tushuncha, mulohaza, xulosa. Hissiy empirik va ratsional bilish birligi. Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari.

Intuitsiya va ijod. Falsafa tarixida intuitsiyaga munosabat. Intuitsiyaning bilishdagi roli.

Falsafada haqiqat muammosi

Haqiqat tushunchasi. Falsafa tarixida haqiqatga munosabat. Haqiqatning falsafiy asoslari. Haqiqatning asosiy shakllari. Ob'ektiv haqiqat, mutlaq haqiqat, nisbiy haqiqat. Haqiqatning korrespondent, kogerent va nazariy konsepsiyasi. Isbotlash va rad etish. Haqiqatni anglashda emotsiya, ideal, iroda, ishonch va shubhaning roli. Verifikatsiya tamoyili. Haqiqat va yanglishish, yolg'on va dezinformatsiya (yolg'on axborot). Haqiqatni amaliy tekshirishning yo'llari. Amaliyot haqiqat mezonlari. Haqiqatning ziddiyatli xarakteri. Haqiqatni baholash mezonlari.

Nazariya va amaliyotning birligi

Amaliyot tushunchasi. Amaliyot falsafasi. Falsafa tarixida amaliyotga turli munosabatlar. Bilish va amaliyotning o'zaro nisbati. Amaliyotning tarkibiy qismlari: maqsad, maqsadga muvofiq faoliyat, amaliy vositalari, amaliy harakat ob'ektlari, harakat natijasi. Amaliyotning ijtimoiy xarakteri.

Metod va metodologiya: asosiy tushunchalar

Metod va metodologiya tushunchasi. Metod va metodika. Fan metodlari: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash. Falsafa metodlari: dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika. Ob'ektiv va sub'ektiv dialektika. Yangi metafizika va eski metafizika. Sinergetikaning asosiy tamoyillari: bifurkatsiya, fluktuatsiya, dissipativ tizim, attraktor. Umumilmiy metodlar, xususiy ilmiy metodlar, fanlararo tadqiqot metodlari. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari. Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadi, abduksiya. Evristika yangi metodologik tamoyil.

Axborot, informatika va axborotlashuvning o'zaro mutanosibligi

Axborot, axborotlashgan jamiyat, axborot texnologiyalari tushunchasi. Axborot va informatsion vaziyat. Informatsion vaziyat elementlari. Axborot sub'ekti va ob'ekti. Informatsiyaning boshqaruv jarayon bilan aloqasi.

Ijtimoiy axborot ijtimoiy –kommunikativ jarayonning asosiy omili. Ilmiy axborot yangi bilim qabul qilish shakli. Ma'naviy bilish faoliyatida bilimning informativligi xususiyatlari.

Fanlar integratsiyasining ilmiy bilish informativ darajasi o'sishidagi roli. Ilmiy axborot integratsiyasining xususiyatlari.

Tushunish va tushuntirish

Tushunish va uning bilish bilan o'zaro nisbati. Falsafa tarixida tushunish masalasi. Germenevtik doiraning mohiyati. Tushunishda ma'noni anglashning

ahamiyati. Tushunishda simvolning o'rni. Dialog tushunish vositasi. Semiotika tushunish vositasi. Mazmunni tushunish va interpretatsiya. Tushunish tushunmaslikni bartaraf qiluvchi jarayon sifatida. Ongli tushunish va ongsiz tushunish. Tushunish imkoniyati va imkoniyatni tushunish. Bilish va tushunishda fenomen muammosi. Tushunish fenomenining ko'pqirraligi. Tushunish ratsionallikning simvolik elementi.

Tushunish va tushuntirishning mutanosibligi. Tushuntirish ilmiy bilimni tushunish shakli sifatida. Tushuntirishda sub'ekt bilimining ahamiyati.

Tarix falsafasi

Tarix falsafasining predmeti, Tarix falsafasiga oid qarashlar evolyutsiyasi. Tarix falsafasining tuzilishi: tarix falsafasi ontologiyasi, tarix falsafasi gnoseologiyasi, tarix falsafasi tarixi. Tarix falsafasi funksiyalari: dunyoqarashga doir funksiyasi, nazariy funksiyasi, prognostik funksiyasi. Tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari. Tarix falsafasining gnoseologik yo'nalishi. Ontologik va aksiologik konsepsiyalar. Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi muammosi. Tarixga formatsion va sivilizatsion yondoshuvlar. Tarix falsafasida tarixiy taraqqiyot g'oyasi. Tarixiy taraqqiyot mezonlari. Tarixiy jarayonda zaruriyat va erkinlik. Tarixiy zaruriyat. Zaruriyat va erkinlik dialektikasi. Tarixda shaxsning roli.

Falsafiy antropologiya (Inson haqidagi ta'limot)

Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonning kelib chiqishi haqidagi ta'limotlar. Insonni falsafiy tushunishning o'ziga xos xususiyati. Insonning ko'p o'lchovligi. SHarq falsafasida inson muammosi. Inson masalasida G'arb an'anasi. Falsafiy antropologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Insonning bioijtimoiy mohiyati. Insonni tushunishda dualizm va monizm. Insonga introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlar. Insonga oid sotsiotsentrik konsepsiyalar. Inson masalasiga teotsentrik yondashuvlar. Insonga nisbatan biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi. Hayotda insonning vazifasi va uning mohiyati. Hayotni tark etish bosqichlari: ijtimoiy, ruhiy, biologik o'lim, miyaning o'limi. Insonni falsafiy nuqtai nazardan o'rganishning zarurati.

Faoliyat falsafasi (prakseologiya)

Faoliyat tushunchasi. Faoliyatning sotsiologik jihatlari. Psixologiyada faoliyatga munosabat. Faoliyatning tuzilishi: ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, vositalar. Faoliyat atributlari: moddiylik va sub'ektlilik. Faoliyatni moddiylashtirish va moddiylashtirishdan chiqarish. Faoliyatda onglilik va maqsadga muvofiqlik. Faoliyatning unumliligi. Moddiy va ma'naviy faoliyat. Inson faoliyatining ramziy jihati. Muloqot faoliyat sifatida. Insonning shakllanishi va rivojlanishida faoliyatning roli. Interiorizatsiya tushunchasi. Interiorizatsiya mexanizmi. Interiorizatsiya nazariyasining tanqidi. Begonalashuv. Mehnat va o'yin faoliyat birligi sifatida. O'yin modelining shartliligi va realligi. O'yinning ma'nosi. Ijod. Ijod natijalarining yangiligi. Ijodiy va noijodiy faoliyat Ijodkor shaxs. Ijod mehnat va o'yin sifatida. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati. Faoliyatni tartibga solish mexanizmlari.

Globallashuvning falsafiy muammolari

Globallashuv – yangi falsafiy mavzu. Globallashuv xodisasi. Globalistika. Global jarayonlarning kurtaklari. Fundamental globallashuv. Global muammolarning ko'pjihatlilik. Global muammolar - globallashuvning oqibati sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvida global tendensiyalarni anglashning ahamiyati. Texnooptimizm. Texnopessimizm. Ekopessimizm. Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli. Global muammolarning mohiyati. Muammolarning turli darajalari: xususiy, milliy, mahalliy, mintaqaviy muammolar. Globallik mezonlari. Hozirgi davrning asosiy global muammolari: demografik tizim, ta'lim muammosi, sog'liqni saqlash muammosi, oziq ovqat muammosi, iqtisodiy rivojlanishning notekisligi, energetika va xom ashyo resurslari, urush va tinchlik muammosi. Global ongni shakllantirish zarurati. Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlarning birlashuvi. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar. Axborot inqilobi.

Falsafa fanini o'qitishda qo'llanadigan metodlar

Falsafani o'qitishda zamonaviy metodlar: axborot kommunikatsiya (media ta'lim, amaliy dastur paketlar, prezentatsion, elektron didaktik) texnologiyasi, teledisklar va ko'rgazmali qurollardan, interfaol metodlardan foydalanish ko'zda tutilgan.

Seminar mashg'ulotlari mavzusi

Falsafa fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Mifologiya-dunyoqarash shakli. Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari. Fan dunyoqarash shakli. Falsafa tarixida borliq muammosi. Tabiat falsafasi. Biosfera va noosferaning o'zaro aloqadorligi Inson borlig'i. Makon va zamon dialektikasi. Hozirgi davr falsafasida harakat muammosi. Dialektika muqobillari. Rivojlanish falsafasi. Falsafa qonunlari, Falsafa kategoriyalarining o'zaro aloqadorligi. Bilish nazariyasining predmeti. Falsafada haqiqat masalasi. Bilish darajalarining o'zaro aloqadorligi. Tushunish va tushuntirish dialektikasi. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. Inson falsafiy muammo sifatida. Inson shakllanishi va rivojlanishida faoliyatning o'rni. Global muammolarning mohiyati. Umuminsoniy va milliy global muammolarning mushtarakligi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

1. Darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish.

Bunday tashkiliy shakl ikkinchi kurs talabalari bo'lganligidan o'tilgan mavzular bo'yicha mustaqil bilim olishda konspekt usulidan foydalaniladi.

2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish.

Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma'ruza uchun 5-6 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

3. Fanning boblari va ma'ruzalari ustida ishlash. Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya va maqolalar), referatlar, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish chog'ida amalga oshiriladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

4. Fanlar bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o'rganish. Bu ish ham barcha semestrlarda amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi.

5. Talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.

6. Faol o'qitish metodidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari. Talabalar tomonidan ta'lim, fan va texnologiyalarning dolzarb muammolari bo'yicha tayyorlangan faol o'qitish metodlarini (munozara, aqlni charxlash, bumerang, klaster v.b.) qo'llagan dars mashg'ulotlari nazarda tutiladi.

7. Avtomatlashtirilgan o'rganuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu esa ma'ruza mashg'ulotlari doirasida ham amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik doirasida ham olib borilishi mumkin.

8. O'quv rejasidagi ayrim fanlar bo'yicha eksternat.

9. Masofaviy ta'lim. Elektron darslikdan foydalanish.

Informatsion-uslubiy ta'minot

Falsafa fanini o'qitishda zamonaviy (xususan interfaol) metodlar, axborot kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalarining qo'llanishi nazarda tutiladi. Falsafa fani kursida elektron darslikdan, mavzuga oid teledisklardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Darslik va o'kuv ko'llanmalar ro'yxati

Asosiy:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008
3. Karimov I.A. Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O'zbekiston, 2009.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iktisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
5. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiyapod redaksiyey O. Fayzullayeva -T.: SHarq, 2000.
6. Falsafa. Axmedova M. tahriri ostida.-T.: UFMJ.2005
7. Falsafa. Mamashokirov S. tahriri ostida.T.SHarq,2005
8. Falsafa qomusiy lug'at. –T.: SHarq, 2004.
9. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –T.: Ma'naviyat, 2008.
10. Soifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii.-T.: 2004
11. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: SHarq, 2004
12. Falsafa asoslari. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: SHarq, 2005.
13. G'arb falsafasi. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: SHarq, 2005.
14. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
15. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. –T.: Universitet, 2005.
16. SHermuxamedova N.A. Gnoseologiya -T.: UFMJ, 2007.
17. SHermuxamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi -T.: Universitet, 2005.
18. SHaripov M., Fayzixo'jayeva D. Mantiq. –T.: Universitet, 2005.

Qo'shimcha:

19. Abilov O'. O'zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi. –T.: Istiqlol, 2003
20. Alekseyev P.V., Panin A.V. Teoriya poznaniya i dialektika. - M.: 1991.
21. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.
22. Asmus Antichnaya filosofiya. -M.: 1999.
23. Baxodir Zokir. Globallashuv ziddiyatlari. // Tafakkur, 2004, 1-son
24. Bosenko V.A. Vseobshaya teoriya razvitiya. –Kiyev.: 2001

25. Globalistika mejdunarodnyy mejdissiplinarnyy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva-Sankt-Peterburg-Nyu-York.: 2006.
26. Ildirov U., Toshxo'jayev S. Xalqaro globallashuvning chuqurlashuvi. // Jamiyat va boshqaruv. –T. 2007 yil, 2-son
27. Karimov B.R. Dialektika ob'ektivnogo i sub'ektivnogo v metode vosxojdeniya ot abstraktnogo k konkretnomu. -T.: 1998.
28. Karpenko M. Vselennaya razumnaya -M.: 1992
29. Madayeva SH. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
30. Noveyshiy filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar, -M.: 2001.
31. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: YAngi asr avlodi.2008
32. Ochiloyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. –Toshkent.: O'zbekiston, 2004.
33. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqol, 2009.
34. P.S.Gurevich Osnovy filosofii -M.: 2002.
35. S.M. Xotamiy Islom tafakkuri tarixida.-T.:Minxoj 2003 287 bet
36. Filosofiya v kontekste globalizatsii. Pod.red. Nysanbayev. –Almaty.: Institut filosofii i politologii, 2009
37. Filosofiya kurs leksiy. Pod redaksiyey Kalashnikova. -M.: 1999.
38. Fragmenty rannyy grecheskix filosofov -M.: 1989. ch.I.
39. Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv jarayoni. // Tafakkur, 2006, 4-son
40. CHumakov A.N. Globalizatsiya. –M.: Prospekt, 2005
41. CHumakov A.N. Metafizika globalizatsii. Kulturno sivilizatsionnyy kontekst. –M.: Kanon, 2006
42. SHpengler O. Zakat yevropy. Rostov na-Donu. 1998.
43. YUnusov A. Huquq ma'naviyati. –T.: Adolat, 2008.
44. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006.
45. WWW.I-U.RU
46. <http://textshare.tsx.org>
47. <http://www.mgimo.ru/filesserver/>
48. http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm

Navoiy davlat pedagogika instituti

Ro'yxatga olindi:

№ BDI-5140100-3.04

«__»_____2011yil

«Tasdiqlayman»

Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

_____prof.X.I.Ibragimov

«__»_____2011 yil

Falsafa tarixi va nazariyasi

ISHCHI O'QUV FAN DASTURI

Fakultet:	MIG', huquq va ma'naviyat asoslari
Kafedra:	Ijtimoiy fanlar
Kurs	3
Jami auditoriya soatlari:	372
Leksiya	92
Amaliy mashg'ulot	-
Seminar	102
Laboratoriya mashg'uloti	-
Mustaqil ta'lim (ish)	178
Bilim sohasi:	100000 –Ta'lim
Ta'lim sohasi:	140000 –O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Ta'lim yo'nalishi (Mutaxassislik):	5141500-Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari

Ushbu ta'lim yo'nalishining DTS O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil «24» iyundagi 191-buyrug'i bilan **TASDIQLANDI** hamda 2009 yil «2» fevralda 1234 - raqami bilan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalashtirish agentligi (**«O'zstandart» AGENTLIGI**) **RO'YXATIDAN O'TGAN.**

Ushbu ishchi o'quv fan dasturi 2008 yil 23 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 263-buyrug'i bilan tasdiqlangan va BD-5140100-3.04 raqam bilan qayd qilingan Falsafa o'quv fani fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi(lar):

Ishchi o'quv fan dasturi Falsafa kafedrasining 2011 yil ____ avgustdagi majlisida muhokama qilingan va ____ -sonli qarori bilan ma'qullangan.

Kafedra mudiri_____

(imzo)

Ishchi o'quv fan dasturi Tarix fakultet o'quv-metodik komissiyasining 2011 yil ____
_____dagi yig'ilishida qo'llanish uchun tavsiya etilgan.

O'quv-metodik komissiya

raisi

(F.I.SH)

Falsafa tarixi va nazariyasi fanidan test savollari
3-kurs

Falsafa fanining vujudga kelgan davri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan

mil. avv. III ming yillik o'rtalari

*mil. avv. VII-VI asrlar

XVII-XVIII asrlar

V-XV asrlar

Borliqni asosi, bilish muammolari, insonning vazifasi va olamdagi o'rnini qaysi fan o'rganadi

*falsafa

ontologiya

gnoseologiya

etika

Jamiyat bilan huquqni qo'shib borliqni mohiyatini asoslovchi ijtimoiy ongning dunyoqarash shakli qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan

tarix

sotsiologiya

*falsafa

kulturologiya

Falsafa fanining dunyoqarash funksiyalari nimalardan iborat

falsafa o'z davri madaniyatining refleksiyasini amalga oshiradi

falsafa mavjud tuzumning kamchiliklariga qarshi kurashish uchun kishilar faoliyatini yo'naltiradi

falsafa kishilar xarakterini yaxshilashga ko'maklashadi

*falsafa insonga o'zini o'zi va olamdagi o'rnini tushunishga yordamlashadi

Dunyoqarash bu –

kishilarda mavjud bilimlar yig'indisi

*insonni olamga va o'ziga nisbatan munosabatini xarakterlovchi qarashlar, baholar, emotsiyalar yig'indisi

inson ongi tomonidan jamiyatda ob'ektiv mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning in'ikosidir shaxsning nuqtai nazarlari yig'indisi

Gegel o'zining “falsafa bu – fikr bilan qurshab olingan davrdir” degan ta'kidida nimani nazarda tutgan

tarixning harakati faylasuflar tafakkuri yo'nalishiga bog'liqligini

falsafa ayni vaqtda jamiyat oldida turgan muammolarni hal etishi lozimligini

falsafa davrning o'ziga xosligini, zamon ruhiyatini ifodalashi lozimligini

*faylasuflar tafakkuri ular yashayotgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan belgilanishini

Diniy dunyoqarashning asosiy belgisi nimadan iborat

yagona yaratuvchi xudoga ishonish

inson erkini inkor etish va uning taqdiri avvaldan xudo tomonidan belgilab qo'yilishini e'tirof etish

fan yutuqlariga shubha bilan qarash va uning yutuqlarini inkor etish

*olamdagi hodisalarning o'zgarishiga ta'sir o'tkazuvchi g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonish

Xudoning mavjudligini inkor etuvchi yo'nalish qanday nomlanadi

*ateizm

skeptitsizm

agnostitsizm

neotomizm

Falsafadagi epistemik yo'nalishga xos xarakterli jihatni ko'rsating

falsafani oliy fan sifatida tushunish

*falsafa bilan ilohiyotni aynanlashtirish

substansiya sifatida faqat yagona ibtidoni e'tirof etish
voqelikni doimiy rivojlanishda ekanligini tan olish

Ontologiya bu –

jarayonlarning umumiy mohiyatga ega ekanligi haqidagi ta'limot

fanning mohiyati va tabiati haqidagi ta'limot

*borliq va uning fundamental prinsiplari haqidagi ta'limot

to'g'ri fikrlash shakllari haqidagi ta'limot

Gnoseologiya bu –

fanning rivojlanishi va funksiyalari haqidagi ta'limot

*bilishning tabiati va mohiyati haqidagi ta'limot

tafakko'ring mantiqiy shakllari va qonunlari haqidagi ta'limot

olamning mohiyati va to'zilishi haqidagi ta'limot

Antropologiya bu –

rivojlanish va o'zaro aloqadorlik haqidagi ta'limot

*odam haqidagi ta'limot

tabiiy sharoitda hayvonlarning hatti harakati haqidagi ta'limot

jamiyat haqidagi falsafiy ta'limot

Aksiologiya bu –

*qadriyatlar haqidagi ta'limot

rivojlanish haqidagi ta'limot

adolat nazariyasi

bir guruh odamlarning boshqalaridan ustunligi haqidagi nazariya

Etika bu –

rivojlanish haqidagi ta'limot

borliq haqidagi ta'limot

bir guruh odamlarning boshqalaridan ahloqiy ustunligi haqidagi ta'limot

*ahloq va ahloqiy qadriyatlar haqidagi ta'limot

Falsafaning bilish muammolarini o'rganuvchi bo'limi.

estetika

etika

ontologiya

*gnoseologiya

Materialistik falsafaning ta'limotiga ko'ra falsafaning asosiy masalasi.

*ongning materiyaga munosabati

hayotning mazmuni

tabiiy va ijtimoiy olamlarning o'zaro munosabati

jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari

Idealizm uchun xarakterli bo'lgan ta'kid . . .

*ong birlamchi bo'lib, materiya ongdan mustaqil holda mavjud bo'lmaydi

materiya va ong ikki ilk ibtido bo'lib bir – biridan mustaqil holda mavjud bo'ladi

bu qat'iy ziddiyatsiz bo'lgan tabiat haqidagi mulohazalar tizimi

ong birlamchi bo'lib materiya mavjud emas

Dualizm uchun xarakterli bo'lgan tezis . . .

ong birlamchi bo'lib, materiya undan mustaqil ravishda mavjud bo'lmaydi

*materiya va ong ikki ilk ibtido bo'lib bir – biridan mustaqil holda mavjud bo'ladi

bu qat'iy ziddiyatsiz bo'lgan tabiat haqidagi mulohazalar tizimi

ong birlamchi bo'lib materiya mavjud emas

Qaysi falsafiy yo'nalish tarafdorlarining ta'kidlashicha "hech qanday buyumlar mavjud emas. Biz faqat buyumlar haqida gapirishga ko'nikganmiz; haqiqatda esa faqat bizning tafakkurimiz va bizning idrokimiz bilan "Men"imiz mavjud"dir

materialistlar

ob'ektiv idealistlar

dualistlar

*sub'ektiv idealistlar

12. Ulug'bekning tabiiy-ilmiy merosi va uning ahamiyati.
13. Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
14. Zaxiriddin Muhammad Boburning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari.
15. Reformatsiya va XVI – XVII asrlar falsafasining asosiy xususiyatlari, uning ijtimoiy va gnoseologik manbalari.
16. XVI – XVII asrlar falsafasida tabiat va borliq muammolari.
17. XVI – XVII asrlar falsafasida aql va bilish muammolari.
18. XVI – XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar.
19. XVIII asr ingliz falsafasida ijtimoiy-falsafiy qarashlar.
20. Frensis Bekon va Rene Dekartning falsafiy qarashlari.
21. XVIII asr Fransiya tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojlanishi va uning falsafiy tafakkurga ta'siri.
22. Fransuz ma'rifatparvarlarining falsafiy qarashlari.
23. I. Kantning falsafiy merosi.
24. Fixte va Shellingning falsafiy qarashlari.
25. Gegelning falsafiy ta'limoti.
26. Feyerbaxning antropologiyasi.
27. Markscha falsafaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.
28. XVIII-XIX asrlarda Rossiyada ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlanishining asosiy omillari.
29. Rus falsafasining asosiy yo'nalishlari
30. Rus falsafasida gumanistik yo'nalish.
31. V. Solovyovning falsafiy qarashlari.

32. XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va ularning ijtimoiy fikrlar rivojiga ta'siri.
33. Boboraxim Mashrab va Bedilning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
34. Maxtumquli, Uvaysiy, Nodirabegim, Anbar otinlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
35. Abay, Gulxaniy, Ogahiyarning ma'rifatparvarlik g'oyalari.
36. Jadidchilik harakati, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati.
37. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida g'arb falsafasi turli xil yo'nalishlarning vujudga kelishi.
38. A.Shopengauer va S.Kerkegor falsafiy ta'limotlari.
39. Pozitivizm falsafasi va uning asosiy vakillari.
40. Pragmatizm falsafasi.
41. F.Nitsshe va Z.Freyd falsafasi.
42. Hozirgi zamon falsafasidagi asosiy yo'nalish va oqimlar.
43. Ontologiya va gnoseologiyaning asosiy muammolari.
44. Hozirgi zamon falsafasida inson va ahloq muammolari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasmiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2003. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. // Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1998. – B.32-36.
3. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi Qonuni. // Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1998. – B. 37-42 .
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 236 b.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 127 b.
6. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997. – 412 b.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – T.: O'zbekiston, 1998. – 196 b.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999. – 476 b.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000. – 175 b.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – T.: O'zbekiston, 2001. – 182 b.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002. – 211 b.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 251 b.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 194 b.
14. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 134 b.
15. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005.
16. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. – T.: O'zbekiston, 2007. – 320 b.
17. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

2. Darslik va o'quv qo'llanmalar.

18. Gunnar Skirbek, Nils Gile. Falsafa tarixi. T.: «SHarq». 2001.
19. Yo'ldoshev S.A. Usmonov M.O., Karimov R.R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. – T.: 2003 y.
20. Yo'ldoshev S.A. Antik falsafa. T.: 1999.
21. Falsafa qomusiy lug'ati. –T.: «SHarq». 2004 y.
22. Falsafa asoslari. Q.Nazarov muharrirligida. – T.: O'zbekiston, 2005. – 382 b.
23. Falsafa (o'quv qo'llanma). E.YU.YUsupovning umumiy tahriri ostida. T. «SHarq». 1999.
24. Xrestomatiya po filosofii – M.: «Sentr». 1998.
25. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T., 1995.
26. Iskandarov. B. O'rta Osiyoda falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar tarixidan lavhalar. T – 1994.
27. Jumaboyev Y. O'zbekistonda falsafaiy axloqiy fikrlash taraqqiyot tarixidan. T., 1997.
28. Stepanyans M.- Filosofskiy aspekti sufizma. M., izd. «Nauka» 1987.
29. Xayrullayev M.M. Kulturnoye – naslediye i istoriya filosofskoy misli. – T., 1985.
30. Xayrullayev M.M. Uyg'onish davri va SHarq mutafakkirlari. T., 1991.
31. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari.- T., 1963.
32. SHaripov A. Velikiy mislitel Beruni. – T., 1972.
33. Voxidov. X.F. O'zbek ma'rifatparvarlarining sotsiologik qarashlari. T., 1966.
34. Yo'ldashev S., Usmanov M.O., Karimov. R., Qobulniyozova G., Ro'zmetov. G. YAngi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi., T., 2002.
35. Zotov A.F., Melvil YU.K. Zapadnaya filosofiya XX veka M.: «Vo'sshaya shkola» 1998.
36. Mo'minov. I.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan. – T.: «Fan». 1994.
37. CHoriyev. A. Inson falsafasi. T., 2002.
38. Falsafa (ma'ruza matnlari). T.: O'AJBNT 2000.
39. Osnovi filosofii (pod red. M. Axmedovoy); T.: 1998.
40. Spirkin. A.G. Filosofiya. – M. 2000.
41. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. T., «O'zbekiston», 2001.
42. Filosofiya. Kratkiy tematicheskiy slovar. Rostov-na Donu. «Feniks» 2001.
43. Aleksev P.V., Panin A.V. Filosofiya (uchebnik) M. Izd. «Prospekt» 1999.
44. Karimov I. Falsafa – yaxlit fan. – T., «Kamalak-kamolot» nashr., 1998.
45. Karimov I. Ma'naviyat, falsafa va hayot. T., «Fan» nashr., 2001.
46. Karimov I. Imon va inson. T., «Fan» nashr., 1991.
47. Karimov B.R. Dialektika ob'ektivnogo i sub'ektivnogo v metode vosxojdeniya ot abstraktnogo k konkretnomu. -T.: 1998.
48. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiyapod redaksiyey O. Fayzullayeva -T.: SHarq, 2000.
49. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. T., 1996.
50. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. T., 1998.
51. Komilov N. Najmiddin Kubro. T., 1995.
52. Falsafa. Axmedova M. tahriri ostida.-T.: UFMJ.2005
53. Falsafa. Mamashokirov S. tahriri ostida.T.SHarq,2005
54. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –T.: Ma'naviyat, 2008.
55. Soifnazarov I. Kurs leksiyo po filosofii.-T.: 2004
56. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: SHarq, 2004
57. Falsafa asoslari. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: SHarq, 2005.
58. G'arb falsafasi. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: SHarq, 2005.
59. Milliy istiqlol G'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O'zbekiston» 2001.

60. Mify narodov mira. Ensiklopediya. V.2 g. M. 1994.
61. Mifologiya blijnego Vostoka. M. 1991.
62. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
63. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. –T.: Universitet, 2005.
64. SHermuxamedova N.A. Gnoseologiya -T.: UFMJ, 2007.
65. SHermuxamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi -T.: Universitet, 2005.
66. SHaripov M., Fayzixo'jayeva D. Mantiq. –T.: Universitet, 2005.
67. Abilov O'. O'zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi. –T.: Istiqlol, 2003
68. Alekseyev P.V., Panin A.V. Teoriya poznaniya i dialektika. - M.: 1991.
69. Aleksev P.V., Panin A.V. Filosofiya (uchebnik) M. Izd. «Prospekt» 1999.
70. Asmus. Antichnaya filosofiya. -M.: 1999.
71. Azimov. Q. Islom va hozirgi zamon. T., 1991.
72. Noveyschiy filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar, -M.: 2001.
73. Gurevich P.S. Osnovi filosofii -M.: 2002.
74. Filosofiya v kontekste globalizatsii. Pod.red. Nisanbayev. –Almati.: Institut filosofii i politologii, 2009
75. Filosofiya kurs leksiy. Pod redaktsiyey Kalashnikova. -M.: 1999.
76. Fragmenti rannix grecheskix filosofov -M.: 1989. ch.I.
77. CHumakov A.N. Globalizatsiya. –M.: Prospekt, 2005
78. CHumakov A.N. Metafizika globalizatsii. Kulturno sivilizatsionniy kontekst. –M.: Kanon, 2006
79. YUnusov A. Huquq ma'naviyati. –T.: Adolat, 2008.
80. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006.
81. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. – T., 1996.

3. Manbalar.

76. Qur'oni karim. Toshkent, «CHo'lpon» nashriyoti, 1993 yil.
77. Imom Buxoriy. «Xadis». 4 jildlik. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1992 yil.
78. Imom Termiziy. «Sahihi Termiziy». Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1993 yil.
79. Abu Nasr Farobiy. «Fozil odamlar shahri». Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993 yil.
80. Abu Rayxon Beruniy. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar». Toshkent, 1998 yil.
81. Avesto» T. «SHarq» nashriyoti. 2001.
82. «Temur tuzuklari». Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996 yil.
83. Mirzo Ulug'bek. «To'rt ulus tarixi». Toshkent, 1996.
84. Alisher Navoiy. «Mahbub ul-qulub». Toshkent, 1987 yil.
85. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T., 1991.
86. Zahriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma». Toshkent, «CHo'lpon» nashriyoti, 1989 yil.
87. Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq». Toshkent, «SHarq» nashriyoti, 1994 yil.
88. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2000 yil.
89. Aristotel. Politika. Afinskaya politiya»: Misl; 1997.
90. Aristotel. Sochineniya v 4 x tomax. M., 1975—1984.
91. Gegel G.V.F. Leksii po filosofii istorii. SPb.: Nauka, 1993, 2000. – 480s.
92. Kant I. Ideya vseobshey istorii vo vseмирno-grajdanskom plane. / Sochineniya v shesti tomax. – M., Misl, 1966. – (Filosof. naslediye).
93. Lukretsiy Kar. «O prirode veshey». M., 1983.

94. Nitsshe F. O polze i vrede istorii dlya jizni. / Sochineniya v 2 t. T. 1. Literaturnie pamyatniki. – M.: Misl, 1990. – 829 s.
95. Parsons T. Sistema sovremennix obshestv. / Per, s angl. – M.: Aspekt Press, 1998. – 270s.
96. Platon. Gosudarstvo. / Sobraniye sochineniy v 3-x tt.T.3 – M., 1971 g.
97. Platon. Sochineniya v 3x tomax M., 1968—1972.
98. Toynbi A.Dj. Postijeniye istorii: Per. s angl. – M.: Progress, 1991. – 736 s.
99. SHpengler O. Zakat yevropi. – Novosibirsk: VO "Nauka". Sibirskaya izdatelskaya firma, 1993. - 592 s.
100. YAspers K. Smisl i naznachenkiye istorii: Per. s nem.- M.: Politizdat, 1991.-527 s.
101. Navoiy. Lison ut-tayr. – T., 1991.
102. YUsof Xos Xojib. Qutadg`u bilik. – T., 1972.
103. Axmad YUgnaki. Xibbatul xaqqoyiq. – T. 1971.
104. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.
105. SHpengler O. Zakat Yevropi. Rostov na-Donu. 1998.

4. Internet saytlari.

O`zbek tilida

www.press-servis.uz - O`zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati
www.edu.uz - O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`limi vazirligi
www.gov.uz - O`zbekiston Respublikasi Hukumati
www.ziynet.uz –
www.faa.uz – O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxonasi
www.pedagog.uz-
www.vak.uz –O`zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
www.nuu.uz - O`zbekiston Milliy universiteti
www.uwed.uz – Toshkent jaxon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
www.samdu.uz – Samarqand davlat universiteti
<http://www.farpi.uz> - Farg'ona Politehnika Instituti
www.tashiit.uz – Toshkent temir yo`l transporti injenerlari instituti
www.andqxi.uz - Andijon qishloq xo`jalik instituti
www.andmi.uz - Andijon davlat tibbiyot institute
www.adtpi.uz - Andijon Davlat Tillar Pedagogika Instituti

Rus tilida.

http://www.philosophy.ru http://petrsu.karelia.ru http://piramyd.express.ru http://taurus.pomorsu.ru http://www.logic.ru http://www.sportedu.ru http://www.nsu.ru http://www.rsuh.ru http://www.aha.ru http://www.herzen.spb.ru/ http://www.novoch.ru http://www.pfu.edu.ru/ http://www.sol.ru http://www.rnd.runnet.ru/ http://log.philos.msu.su http://www.rchgi.spb.ru/	http://www.kmr.kemsu.ru/ http://www.philsci.univ.kiev.ua http://www.kubstu.ru http://www.kubsu.ru/ http://margu.mari.ru/ http://osso.isd.minsk.by http://www.mai.ru/ http://mgsu.norna.ru
--	--

1-mavzu: Falsafa tarixi va nazariyasining tadqiqot ob'ekti, predmeti va muammolari doirasi.

Reja:

- 1. Falsafa tushunchasining mohiyati va falsafaning rivojlanish bosqichlar.**
- 2. Falsafa fanining tadqiqot ob'ektlari va predmeti.**
- 3. Falsafaning umumiy muammolari doirasi.**
- 4. Falsafani o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Mavzuning asosiy mazmini.

Falsafa - fan. Falsafiy g'oyalar, nazariyalar, ularni shakllanishi va ahamiyati. Falsafa jaxon xalqlari madaniyatining tarkibiy qismi, umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatiga ega, voqelikning eng umumiy aloqadorligi va taraqqiyot qonunlarini o'rganuvchi ta'limot. Falsafa atamasining lug'aviy ma'nosi. «Falsafa» va «falsafa fani» tushunchalaridagi umumiylik va ayrimlik, uning metodologik ahamiyati. Bu haqida Forobiy fikrlari. Falsafaning kelib chiqishini ijtimoiy – iqtisodiy zaminlari, falsafa predmetining jamiyat, fan va texnika taraqqiyoti natijasida doimo o'zgarib turishi. Falsafaning baxs mavzulari: borliq, dunyoni falsafiy anglash, inson, jamiyat va uning istiqboli, falsafaning hozirgi zamon umumbashariy muammolari.

1. Falsafa tushunchasining mohiyati va falsafaning rivojlanish bosqichlar.

Har qanday noma'lum so'z mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun yuzaga kelganini aniqlashdan boshlash o'rinli bo'ladi. **«Falsafa»** tushunchasi yunoncha *phileo* – sevaman va *sophia* – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri *Pifagor* miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim va insonning o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

SHuni ta'kidlash lozimki, *Pifagor* ham, qadimgi davrning boshqa faylasuflari ham dastlab «falsafa» tushunchasiga uning keyinchalik paydo bo'lgan va mohiyat e'tibori bilan, falsafani «barcha fanlar podshosi» darajasiga ko'targan ma'nosidan boshqacharoq ma'no yuklaganlar. Ammo ilk faylasuflar o'zlarini donishmand deb hisoblamaganlar va donolikka da'vo qilmaganlar, zero, o'sha davrda keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga o'tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan o'tgan, eng so'nggi bilimlarga ega bo'lgan bashoratgo'ylar, kohinlar va oqsoqollar e'tirof etilgan. Ularning so'zlari shak-shubhasiz va birdan-bir to'g'ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, *donishmandlik muxlisi bo'lishi, e'tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki o'z aqliga tayanib, boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan ijodiy yo'l bilan foydalangan holda maqsadga intilishi* lozim bo'lgan.

Darhaqiqat, insonning dunyo va o'ziga bunday munosabat darhol yuzaga kelgani yo'q. Insonning tabiatga qarshilik ko'rsatish, mavjudlik vositalarini yaratish va ko'paytirish qobiliyatlari rivojlangunga va o'sgunga, buning natijasida yetarli tajriba va bilimlar to'plangunga, odamlar aqli ko'p sonli savollarga javob izlash uchun yetarli darajada yuksalgunga qadar insoniyat uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. SHu bois falsafaning mohiyatini, shuningdek uning paydo bo'lish sabablari va sharoitlarini tushunish uchun gapni inson dunyoqarashidan boshlash lozim. *Nima uchun?* SHuning uchunki, falsafa dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllaridan biri hisoblanadi. Falsafa haqida gapirish – inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va yerda paydo bo'lish tarixi haqida gapirish demakdir. Bu yerda biz hali kam o'rganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini topishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida yechilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, *inson nima uchun, qayerdan, qaysi sabablarga ko'ra paydo bo'lgan*, degan savolga aniq, umumiy e'tirof etilgan javob hanzugacha mavjud emas. Xuddi shuningdek, *aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borlig'ida mavjudligi ob'ektiv borliqning ayrim hodisasimi?*, degan savol ham hali o'z javobini topganicha yo'q.

SHu bois, insoniyat tarixi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar nuqtai nazaridan ayrim masalalar mavjud bo'lib, ular xususida olimlar va mutaxassislar ma'lum bir to'xtamga kelganlar. Xususan, boy tarixiy material, arxeologiya fanining daliliy ma'lumotlari, shuningdek boshqa fanlarning metodlari bilan olingan natijalar (masalan, jinslar, foydali qazilmalar yoshini aniqlash va sh.k.)ni e'tiborga olgan holda, ishonch bilan *inson sayyoramizda hayotning tadrijiy (evolyutsion) rivojlanishi mahsulidir*, deb qayd etish mumkin. Hozirgacha mavjud bilimlar oddiy mehnat qurollarini yasagan insonsimon mavjudotlarning (lot. *homo habilis* – uquvli odam) qadimgi manzilgohlari taxminan 3-5 mln yil oldin paydo bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Arxeologik va ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan 1,5 mln yilni tashkil etadi. *Homo sapiens*, ya'ni aqlli odamlar tipi atigi 40-60 ming yil oldin vujudga keldi. Insonda ong paydo bo'lib, u ijtimoiy mavjudot sifatida uzil-kesil shakllanganidan beri, mutaxassislar fikricha, uning asosiy xususiyatlarida jiddiy o'zgarishlar yuz bergani yo'q, ya'ni u hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaydi.

Ong paydo bo'lishi esa, ilmiy tasavvurlarga muvofiq, inson tarixiy rivojlanishining odam miyasi o'sib borayotgan mehnat faolligi va verbal (nutq orqali) muloqot ta'sirida o'ta rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tushunadigan darajaga yetgan davri bilan bog'lanadi. SHunday qilib, inson *tushunchalarga ta'rif berish, mulohazalar bildirish va mushohadalar yuritish yo'li bilan sodda, lekin aqliy ish olib bora boshladi*.

Falsafa fanining rivojlanish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qadimgi dunyo falsafasi
- O'rta asrlar falsafasi
- Uyg'onish davri falsafasi
- YAngi davr falsafasi
- Eng yangi davr falsafasi.

2. Falsafa fanining tadqiqot ob'ektlari va predmeti.

Endi «Falsafa nimani o'rganadi?», degan savolni berishimiz mumkin. *Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday ob'ektiv va sub'ektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi.* . Boshqacha aytganda, inson o'z qiziqishi ob'ekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmeti bo'lishi mumkin. SHu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to'g'risida so'z yuritish mutlaqo o'rinli bo'ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan ta'rifda «inson» tushunchasi yig'ma ma'noda qo'llanilgan. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, garchi falsafaning predmetiga biz umumiy nuqtai nazardan ancha keng ta'rif bergan bo'lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko'ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi YUnonistonda *kosmotsentrizm* ilk falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy e'tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab yetishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar-polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan *ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari* o'rin oldi. YYevropada xristianlikning, SHarqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o'rta asrlar falsafasi *teotsentrik* (yunon. *theos* – markazdan o'rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya'ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg'onish davrida falsafa *san'at (estetika)*ga va ko'p jihatdan *insonga murojaat qilindi*.. YAngi davr deb nomlanuvchi XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan

bilan uzviy bog'landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan *bilish va ilmiy metodlar* masalalari o'rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va oqilonalik inqirozi *irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik* muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o'z navbatida, *matnlar mantig'i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga* alohida qiziqish uyg'onishiga olib keldi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida *hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni* kun tartibiga qo'ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma'nolar va g'oyalar «aytib bo'linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o'ziga yog'ilyotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e'tiborni qaratar ekan, *notizimlilik, YYevropa an'anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatlarini va chegaralarini o'zgartirish* g'oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o'ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o'rin olgan yana bir mavzu *globallashuv* jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo'nalishini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy yechimini topish bu muammolarni shu jumladan falsafiy darajada anglab yetishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e'tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga *ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo'yish* muammolarini kiritish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat'iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog'lash mumkin emas. U vaqt omiliga va ob'ektiv sabablar to'plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o'ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o'z ahamiyatini yo'qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo'lmay qoladi, degan ma'noni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o'ringa surib qo'yadi, ular muayyan davrda va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o'rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvorliklar yunalishi bo'ylab yuqoriga ko'tarilish uchun o'z vaqtini «kutib», go'yoki panada turadi, desak, to'g'riroq bo'ladi. Ayni shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o'zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafiy hamjamiyatning asosiy e'tibori ma'lum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko'ramiz.

3. Falsafaning umumiy muammolari doirasi.

Falsafa yaxlit ilmiy bilim tizimini tashkil etib, muayyan fundamental qoidalarining yig'indisiga asoslanadi. Bu qoidalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi uch turkum, yirik muammolarni qamrab oladi.

1. Borliq va uning rivojlanish muammolari. Borliq — mavjudotni ifodalovchi tushunchadir. U murakkab va ko'p qirralidir. Moddiy borliq, ideal borliq, inson borlig'i va hokazolar shular jumlasidandir.

Borliq, uning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy mushohada qilish insonni doimo qiziqtirib kelgan va hozir ham qiziqtirib kelmoqda. Borliqni ilmiy izohlash, anglashga qaratilgan xilma-xil falsafiy yo'nalishlar va fikrlar mavjuddir. Ularni atroflicha va batafsil o'rganib chiqish insonning falsafiy dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

2. Falsafa fani borliq muammosi bilan bir qatorda voqelikning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlari, ularni inson ongida aks ettirish to'g'risidagi ta'limotidir. Narsa va hodisalarning bir-biri bilan aloqadorligi va ularning doimiy rivojlanib turishi falsafa fanida uning asosiy qonun va kategoriyalari sistemasida o'z aksini topadi. Demak, falsafa fani borliqdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanishini aks ettirish uchun qonun va kategoriya tizimini yaratadi va uning yordami bilan inson atrofini qurshab turgan voqelikni aks ettiradi. Inson tafakkurining shakli bo'lgan falsafiy qonun va kategoriyalar yordamida borliqni o'rganish katta falsafiy muammodir.

Falsafa — nazariy fikrlarning shakli va qonuniyatlarini ham o'rganuvchi ta'limot bo'lib hisoblanadi. Tafakkur shakllari va qonunlari formal mantiq va falsafa fanlarida o'rganiladi.

Formal mantiq narsa va hodisalarni harakatsiz, barqaror, ziddiyatsizlikda tahlil etishni talab etadi. Unga muvofiq, bir faqtda, bir jihatdan olingan ikkita qarama-qarshi fikrlar haqiqat bo'lishi mumkin emas. Bundan farqli o'laroq, falsafiy tafakkurlash narsa va hodisalarni harakatda, hamma tomonlarini, ziyadditlar birligida tahlil etishni talab etadi. Ziddiyatlarni hisobga olgan tafakkurlash mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, Ziddiyat va tasodif va h.q. kategoriyalar (tushunchalar) hamda falsafiy qonunlar yordamida tahlil etilayotgan narsaning barcha tomonlarini chuqur va atroflicha bilib olish imkoniyatini yaratadi.

Empirik bilish formal mantiq qonun-qoidalarini asosida fikrlash bilan kifoyalansa, nazariy bilish falsafiy (dialektik) fikrlashni talab etadi.

3. Voqelikni bilish nazariyasi. Borliqni inson ongida aks ettirish — murakkab dialektik jarayondir. Uni atroflicha va chuqur bilish uchun falsafa fani — in'ikos nazariyasini ishlab chiqdi. Falsafaning in'ikos nazariyasi bilish jarayonida sub'ekt bilan ob'ektning aloqadorligi, bilishning asosiy bosqichlari va shakllari, haqiqatga erishish dialektikasi va shunga o'xshash ko'pgina murakkab masalalarni atroflicha anglab olishga yordam beradi. Ilmiy bilish va inson amaliyoti uchun bu katta ahamiyat kasb etadi.

YUqorida ko'rsatilgan muammolar falsafasining barcha tarixiy tiplari va yo'nalishlari markazida turgan muammolardir. Antik davr, o'rta asr, yangi davr va hozirgi zamon faylasuflarining barchasi o'z asarlarida borliq, uning kelib chiqishi va rivojlanishi qonuniylari to'g'risida, insonning borliqqa munosabati, voqelikni rivojlanish manbalari, uni bilish qoidalarini va shu kabi murakkab falsafiy masalalar to'g'risida turlicha fikrlar aytganlar va aytib kelmoqdalar. Bu esa, falsafaning fundamental muammolari davomiyligi va ularning umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

4. Insonning dunyoqarashini, uning ongini falsafa qoidalariga muvofiqlashtirib shakllantirishda jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishi qonuniyatlarini anglab olish katta ahamiyatga ega. Jamiyatda ro'y berayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy hodisalar, ularning kelib chiqishi, rivojlanish yo'nalishlarini falsafiy anglash mazkur jarayonlarni atroflicha va chuqur mushohada etish bilan bir qatorda, insonning ularga qanday munosabatda bo'lishini aniqlab olish imkoniyatini tug'diradi. SHuning uchun bu masalalar ham falsafiy tahlil qilishni taqazo etadigan muammolar qatoriga kiradi.

Hozirgi davrda inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi, insonning istiqboli, fan va texnika yutuqlaridan barcha insoniyat manfaati yo'lida oqilona foydalanish har qanday urushning oldini olish, tabiatni muhofaza etish, ocharchilikning oldini olish, insoniyatni, uning madaniyatini saqlab qolish, jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish va shu kabi masalalar ham falsafaning dolzarb muammolari hisoblanadi.

Falsafa doirasidagi masalalar hayotdan ajralgan mavhum masalalar emas, balki, ular inson va uning hayotidan kelib chiqadigan dolzarb, umuminsoniy xususiyatga ega muammolardir. Hegel ta'biri bilan aytganda, falsafa — inson tafakkurida aks etgan davrdir. Falsafa fani vujudga kelgandan boshlab to hozirgi kungacha ham hayot yuzaga keltirgan turli-tuman masalalar, insonni avvaldan qiziqitirib kelayotgan muammolar doimo uning diqqat markazidadir.

YUqorida aytilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, falsafa fanining predmeti, muammolari doimo o'zgarib, yangilanib turadi.

4. Falsafani o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Odatda falsafa kundalik hayot va amaliyotdan ancha uzoq bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud. Ammo bu fikrga qo'shilish mushkul, zero umumiy nazariyalar, agar ularga kengroq ma'noda va uzoqroq istiqbol nuqtai nazaridan yondashilsa, ba'zan bilimning tor sohalariga taalluqli bo'lgan ko'pgina muayyan g'oyalardan yaxshiroq samara beradi.

Albatta, falsafa doim kundalik hayotdan ma'lum darajada uzoq bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Uning o'ziga xos xususiyati, betakrorligi ayni shu omilda namoyon bo'ladi. Biroq, boshqa tomondan, falsafa oddiy ijtimoiy borliq, kundalik ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy hayot amaliyoti deb nomlash mumkin bo'lgan narsalardan ham o'zini olib qochmaydi. Falsafiy refleksiya va u bilan mushtarak bo'lgan harakatlarning mazkur yo'nalishi XX asrda hatto butun bir yo'nalish — *amaliy falsafa* vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bunda falsafa siyosiy, ijtimoiy va boshqa qarorlar qabul qilishga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish mumkin emas, ammo bu holni butunlay istisno etish ham o'rinli bo'lmaydi. Biroq shu narsa aniqki, falsafa odamlar dunyoqarashini shakllantirish orqali ularning xulq-atvorini, yuqorida zikr etilgan qarorlarni ishlab chiqish jarayonida ularning

yondashuvlarini ham ko'p jihatdan belgilaydi, faylasuflarning o'zlari esa ba'zan odamlar hayotini butunlay o'zgartiruvchi muhim, olamshumul g'oyalar tashabbusi bilan chiqadilar.

Faylasuflar jamiyatdagi ma'naviyat va axloqning holati uchun ham sezilarli darajada javobgardirlar, zero ular nafaqat ijtimoiy me'yorlar va tamoyillarni rivojlantiradilar, ulardan dars beradilar yoki kitoblar, maqolalar orqali ijtimoiy ongni ular bilan oshno etadilar, balki aksariyat hollarda keng jamoatchilik fikrini uyg'otadigan, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, madaniyat va ma'naviyat masalalariga doir muhokama va munozaralar tashkil etadilar.

Falsafaning ijodiy xarakteri. Falsafa jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan holda, ayni vaqtda fan bilan doim yaqin aloqada ish ko'radi. U yoki bu fan qanday muayyan muammolarni hal qilishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo zaruriy shart hisoblanadi. Muayyan fan predmetiga va uning oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng, mazkur fan chegarasidan chetga chiqadigan, bilimning boshqa sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni ham aks ettiradigan yaxlit yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishiga erishish ham mumkin emas.

O'z vaqtida dunyoga nisbatan (odatdagi, «klassik» fizika doirasida uzoq yillar hukm surgan yondashuvlarga qaraganda) kengroq yondashuv, masalan, A.Eynshteyn (1879-1955)ga dunyoning manzarasini tushunishga nisbatan butunlay yangicha yondashuvni taklif qilish va avvalgi fizikaning aksariyat qoidalari muayyan darajadagina haqiqiy bo'lib qolgan sharoitda klassik (Nyuton) mexanikasini ham o'z ichiga olgan «Nisbiylik umumiy nazariyasi»ni ta'riflash imkonini berdi. Ammo tabiiy bir savol tug'iladi: bu yerda falsafa chindan ham ijodiy rol o'ynadimi? Agar ijodiy rol o'ynagan bo'lsa, bu nimada va qay tarzda namoyon bo'ldi?

Umumiy dalillarga to'xtalmay, shuni qayd etishni o'rinli deb hisoblaymizki, Eynshteyn ongida o'zidan oldingi va o'zi yashayotgan davrdagi falsafa g'oyalari to'qnashdi. Ular mutafakkirning butun ijodiy faoliyatiga, hech shubhasiz, kuchli ta'sir ko'rsatdi, zero u ratsionalistik falsafaning ko'pgina klassiklari, ularning o'tmishdoshlari va izdoshlari bilan talabalik yillaridayoq tanishgan edi. «Biz Eynshteyn ijodiga XX asr o'rtalarining fizik konsepsiyalari va kelajakka prognozlar nuqtai nazaridan, retrospektiv nazar tashlar ekanmiz, uni insoniyat ma'naviy hayoti katta bir bosqichining yakuni deb hisoblash mumkin. – Bu bosqich faqat Nyuton mexanikasi bilan boshlangani yo'q. Butun ratsionalistik fan va XVII asr falsafasi uning negizi hisoblanadi. Eynshteyn asarlari bilan tanishar ekansiz, Galiley, Dekart, Spinoza, Gobbs, Nyuton satrlarini beixtiyor eslaysiz – ba'zan g'oyalarning ajabtovur o'xshashligiga duch kelasiz... XVII asr ratsionalistik tafakkurining nomuayyan farazlari va izlanishlari qanday qilib ijodiy, izchil shakl-shamoyil kasb etayotganining guvohi bo'lasiz. Bu yerda tadrijiy aloqa mavjudligi shak-shubhasizdir»¹.

Falsafiy tasavvurlar va tabiiy-ilmiy qarashlarni farqlash oson ish emas. Biroq falsafiy tasavvurlar tabiiy-ilmiy qarashlarga ta'sir ko'rsatgani, xuddi shuningdek al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Ibn-Sino, Mirzo Ulug'bek, I. Nyuton, A.Eynshteyn kabi buyuk olimlarning ilmiy g'oyalari zahirida ularning keng va teran falsafiy bilimlari yotishi shak-shubhasizdir. Ayni shu sababli ko'rsatilgan mutafakkirlarning yaxlit falsafiy ta'limoti haqida bo'lmasa ham ularning jiddiy falsafiy qarashlari haqida to'la asos bilan so'z yuritish mumkin.

¹ Кузнецов Б.Г. Эйнштейн. Жизнь, смерть, бессмертие. – М., 1980. – 414-б.